

## O'ZBEK ETNIK CHOLG'ULARI BEBAHO BOYLIGIMIZ

**Eraliyev Zohidjon Muhammadovich**

*Respublika musiqa va san'at kolleji  
"Folklor san'ati" kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya** *Surxondaryo viloyatining bebaho musiqiy boyligi ota-bobolarimizning san'atga qiziqishi, ajdodlarimizning asrlar osha musiqa merosi, dostonlari, ichki his-tuyg'ulari, kechinmalari, dardlari, xonishlari, urf-odatlari, milliy qadriyatlar, kuy va qo'shiqlari va albatta milliy mafkurasi, milliy cholg'ulari: do'mbira, sibizg'a, shupullak, chanqovuzlar kuylarida ustozdan shogirdga o'tib bizgacha yetib keldi. Boy musiqa merosimizning mustaqillikkacha bo'lgan ahvoli achinarli holga kelib qolgan edi. Milliy cholg'ularimizda ijrochilik san'ati va ularda yaratilgan ohanglar san'atsevar xalqimiz, jonkuyar musiqashunoslarimiz qalbidagina saqlanib, avaylab-asralib shu kunlarimizgacha yetib keldi.*

**Kalit so'zlar:** *Do'mbira, sibizg'a, chanqovuz.*

### DO'MBIRA

Surxondaryo milliy-an'anaviy cholg'ularidan biri hisoblangan do'mbira torli, tirnama o'zbek xalq cholg'usidir. Do'mbirada ipak yoki ichakdan qilingan ikkita tor bo'lib, bu torlar ko'proq kvarta oralig'ida, ba'zan esa cholg'uchining ixtiyori bilan kvintaga ham sozlanadi. Do'mbira dastasiga bog'langan yoki doimiy pardalar bo'lmaydi. Unda baxshilar termalar aytishda va dostonlar kuylashda foydalanadilar. Do'mbiraning tuzilishi, shakli, uzun dastasi, ikkita tor taqilishi va chalinishi bilan dutorga o'xshaydi. Yuqorida aytilganidek, do'mbiraning torlari dutordek kvarta, ba'zan esa kvintaga ham sozlanadi, lekin sozning aniq balandligi ijrochining sozlashiga bog'liq bo'ladi. O'rta Osiyoda do'mbiraning ikki turi qo'llanilib kelingshan. Biri G'arbiy Osiyoda chalinadigan turi bo'lib, uning dastasi uzun va ingichka, dastasiga bog'langan 12 ta ichak pardalar bo'ladi. Ikkinchisi Sharqiy Osiyoda chalinadigan turi, uning dastasi kalta va yo'g'on hamda, 7-9 ta ichak parda o'ralgan. Ba'zi hududlarda 3 torli do'mbiralar ham qo'llaniladi. Bu do'mbiralar uch va to'rt burchakli qilib yasalgan. Har ikkala do'mbira turlarining chalish texnikasi murakkabdir. 1930 yillarga kelib, do'mbira cholg'usi qayta ishlanib, xalq cholg'u orkestrlarida foydalanish uchun uning pikollo, prima, tenor, bas va kontrabas turlari ishlab chiqildi.

Surxondaryo vohasida qo'llaniladigan do'mbirada kuyning qanday ijro etilishi mahoratidan kelib chiqqan holda har bir do'mbirachi baxshi ijro etayotgan asarning emotsional obrazli holatiga-xarakteriga javobgardir. Ijrochi biror-bir asarni ijro etayotganida kuyning oddiy jarangdor tovushi bilan chegaralanib qolmaslik imkoniyatiga ega. Ijrochi cholg'uda kuyning aniq, asosiy holatiga o'tishi mumkin. Shuning uchun do'mbira cholg'usi keng qamrovga ega. U va unda ijrochilik asosan Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida yashagan qo'ng'iroq qavmlari: laqaylar, barloslar, O'zbekistonda

yashovchi boshqa o'troq xalqlardan farqlanib turganlar. Yaqin o'tmishgacha qo'ng'irot eli ko'chmanchi chorvadorlik bilan shug'ullanib kelganlar. Bu shunday tushunchaki, deyarli hamma do'mbira kuylari tashqi dunyo timsollari qiyofasida kelajak haqida tasovvurlarni vujudga keltirish va musiqaning yaratilishi mavzu jihatidan ham, janr jihatidan ham do'mbirachi baxshilarning o'z mahoratlarida yaratilgan asarlar, kuy va dostonlar o'zining asosiy ifodasini topgan.

O'zbek do'mbira kuylarida asosan "Cho'poncha" kuyi musiqa jihatidan ajralib turadi. "Kelinoyi" kuyi esa lirika jihatidan yumshoq, mayin va ijrochilik xususiyatiga boy bo'lishi bilan boshqa turdagi do'mbira kuylaridan farq qiladi. Bu kuy nag'mali, jozibador va bashang-ohangdor ijro etiladi. Do'mbira kuylari asosan sayqalli va xilma-xildir. Bunda ladli, ifodali, ya'ni turli balandlikdagi bo'lgan tovushlarning o'zaro aloqasini, beqaror tovushlarning bir tonikaga intilishini, o'zaro bog'liq tovushlar tuzilmasini kuzatish mumkin. Qo'ng'irot eliga tegishli bo'lgan musiqadagi hodisalar hayotiyiligi bilan tinglovchilarni jalb qila oladi.

"Qo'ng'irot", "Laqay", "Baxshi kuy" kabi asarlarda ijrochilik asosan baxshi yoki cholg'uchining o'ziga bog'liq bo'lib qoladi. Do'mbira kuylari oddiy to'rtliklardan iborat bo'lib, chuqur rang-baranglikni kasb etadi. Do'mbira kuylarini o'rganish uchun nota yozuvi kerak bo'lmaydi, chunki, nota ma'lum bir qolip bo'lib, qonun-qoidalari mavjud. Unda har bir cholg'uchi o'z mahoratidan kelib chiqib, yangi ijodni yuzaga chiqarishi mumkin. Do'mbirada ijro etilgan kuyning imkoniyatlari juda keng bo'lib, musiqa asari eshilitish jihatidan ifodali, ma'nodor va dona-donadir.

Do'mbira cholg'usi O'zbekiston hududida har xil tarqalgan. Masalan: Samarqand, Toshkent, Buxoro, Farg'ona viloyatlarida bu cholg'u dostonlarning aytilishida tinglovchiga yaxshi ta'sir etilishi, sifat boshqaruvchisi vazifasini o'tagan. Lekin Xorazm viloyatida do'mbira cholg'usi hatto shu yo'llarda ham foydalanilmagan. Qashqadaryo va Surxondaryoda qadimdan do'mbira xalqning asosiy milliy cholg'u sozi hisoblanadi va har bir xonadonda bo'lgan. Hozirgi kunga kelib Surxondaryodan yetishib chiqqan do'mbirachilar: Chorsha baxshi, Shoberdi baxshi, Abdunazar baxshi, Zulxumor baxshi, O'rol baxshi, Ismoil baxshi, Sherali baxshilar terma va dostonlar kuylash bilan birgalikda mashhur do'mbira kuylarini xalq sayllari, bayramlar va to'y-tomoshalarda mohirlik bilan ijro etib kelmoqdalar.

#### **SIBIZG'A**

Surxon vohasiga xos va mos bo'lgan, Surxondaryo milliy-an'anaviy cholg'ularidan yana biri, ayni shu vohada yaratilgan cholg'u – bu sibizg'adir. Uning ovozi naqadar maftunkor, naqadar jarangdor va mungli, shu bilan birga juda keng imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramay, tuzilishi juda sodda va oddiydir. Shuning uchun qadimda har bir o'zbek xonadonida o'g'il farzand 4-5 yoshga to'lganda bobosi, otasi yoki tog'asi oddiygina ingichka qamishdan qirqib olib, sibizg'a yasab berganlar. Bolalar esa ularni o'zlari xohlaganlaricha va o'zlari bilganlaricha puflab chalib, zavqlanib yurganlar. Sibizg'a Surxon vohasidan kelib chiqqan naysimon cholg'u bo'lib, uning yaratuvchilari chorvador-cho'ponlardir. Sibizg'aning qadimiy ikkinchi nomi "sibiziq" bo'lib, uning sadosi eshituvchida tabiat, borliq, kenglikni

esga soladi. Tinglovchi ko'z o'ngida tog'u-toshlar, cho'lu-sahrolar, qiru-adirlar gavalanganday bo'ladi. Bu musiqiy cholg'u juda qadimgi cholg'u hisoblansada, dastlabki ko'rinishiga va tuzilishiga nisbatan juda kam o'zgarishga uchragan. Sibizg'a cholg'usi ingichka lekin qalin devorli qamishdan yasaladi. Tovushning balandligini o'zgartirish uchun 3 yoki 4 ta teshik ochiladi. Ana shunday sibizg'ada kvarta, kvinta, ba'zan seksta diapazoni oralig'idagi kuylarni chalish imkoniyati bor.

Sibizg'ada tovush nafas – puflash orqali hosil qilinadi. Og'iz bo'shlig'idan kuch bilan yo'naltirilgan havo sibizg'aning tanasida ochilgan "tilcha" bilan korpus oralig'i orqali o'tadi va tebranib turish xususiyatiga ega bo'lgan "tilcha"ni tebratadi va tovush hosil qiladi. Sibizg'ani chalishga tayyorlashda uning orqa tomonidan puflanadi va buning natijasida "tilcha" biroz ko'tarilib, ijro uchun tayyor bo'ladi. Havo kuchining o'zgarishi sibizg'ada hosil qilinadigan tovush kuchining va balandligining o'zgarishiga olib keladi. Tovush chiqarish, ohang chalish ijrochining mahoratiga bog'liq bo'lib, diatonik tovush qatoriga ega bo'lgan mazkur cholg'uda kerakli tovushlarni nafas kuchi orqali hosil qilish imkoniyatini yaratadi.

Sibizg'a cholg'usini milliy musiqamizda qayta tiriltirgan fidoyilardan biri, Sho'rchilik, ushbu sodda cholg'uda o'ziga xos musiqiy ohanglar yaratgan Nodir bobo va uning farzandi Abdurashid bobo Nodirovlarning xizmatlari kattadir. Ularning ijrochilik mahoratlari musiqa mutaxassislarining e'tiborini tortishi natijasida sibizg'aga e'tibor o'zgardi va ular ijrosidagi kuylar va ohanglar Respublikamizning "Mustaqillik" va "Navro'z" umumxalq bayrami tantanalarida yangradi, xalqimiz diqqatini o'ziga tortdi. Hozirda bu cholg'u ijrochilari yoshlar orasida ko'plab topiladi. Sibizg'aning turli joylarda turli kishilar tomonidan yasalishi hamma joyda bir xil o'lchamga amal qilinmasligiga olib keladi. Nodir bobo tomonidan tayyorlangan sibizg'aning o'lchamlari quyidagicha bo'lgan: qamish sirti diametri 7 millimetr, ichki diametri 4 millimetr bo'lib, uzunligi 11-12 santimetr bo'lgan. Tilning uzunligi 3 santimetr, diametri 6 millimetr bo'lgan. 3,5 millimetr kenglikdan 4 ta teshik ochilgan. Ushbu cholg'uda 2-oktava Do bo'lib, 2-oktava Sol diez tovushigacha hosil qilish mumkin edi. Keyinchalik sibizg'a takomillashtirilib, mustaqil ravishda 4- teshik va til oralig'ida yana bir teshik ochilib, tovush darajasi 2-oktava Si tovushigacha yetkazildi. Hozirgi kuga kelib sibizg'adan estrada musiqasida va hatto orkestrda ham foydalanilmoqda.

### **CHANQOVUZ**

Surxondaryo milliy xalq cholg'u ijrochiligida tilchali-chertma sozlardan chanqovuz alohida o'rin tutadi. Chanqovuz cholg'u sozi qadimiy cholg'u hisoblansada, u haqdagi ma'lumotlar tarixiy manbalarga anchayin kech kiritildi. Buning sababi musiqiy cholg'ular to'g'risidagi ilmiy maqolalarda ushbu cholg'u to'g'risida ma'lumotlar berilmagan. Chunki chanqovuzda alohida mukammal kuy yaratish imkoniyatlari yo'q deb hisoblangan. Ammo, chanqovuz cholg'usining juda qadimiy cholg'u ekanligini isbotlash uchun ikkita faktni keltirish mumkin: Chanqovuz cholg'usining metallardan va tuya suyagidan tayyorlangan turlarining mavjudligi ushbu cholg'u metallardan foydalanish boshlangan davrdan oldin ham mavjud bo'lganligiga ishora qilsa, chanqovuzga aynan o'xshash cholg'ularning Sharqiy, Turkiy xalqlar, Shimol xalqlari, Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan totor, boshqird

xalqlari va hatto Olmonlarda ham uchrashi uning juda qadimiy cholg'u ekanligidan dalolat beradi.

Temir chanqovuz 8-10 santimetr uzunlikdagi temir shoxadan iborat bo'lib, o'rtasida yupqa po'lat tilchasi bor. Tilcha uzunligi 7-9 santimetr bo'lib, uchi qayrilgan bo'ladi. Ijrochi chanqovuzni og'ziga qo'yib, ikki labi va tishlari bilan qistirib, chap qo'lida ushlab turadi. Po'lat tilchani o'ng qo'l ko'rsatkich hamda kichkina barmoqlari bilan chertganda bir necha xil zirillagan va zuvillagan tovush chiqaradi. Bu tovushning balnd yoki pastligi chanqovuz tilchasining uzunligi va yo'g'onligiga-qalinligiga bog'liq bo'ladi. Ijrochi og'zini yarim ochiq shaklida o'zgartirilgan qaytarish bilan melodik tuzilma hosil qilinadi. Shu jarayon, ya'ni 2-3 taktlar har safar o'zgarib turib, ba'zida tertsiya yuqoriga o'zgaradi.

Chanqovuz faqat tor diapazon bilan chegaralanib qolmasdan, hissiyot nuqtai nazardan ham juda kamtaronadir. Lekin baribir ohang ijro etiladi. Chunki uning tovushi juda chiroyli, yoqimli tembrlarda va o'ziga tortuvchan hamda muloyim tovushga ega. Chanqovuz cholg'usi qadimdan O'zbekiston hududining hamma viloyat va shaharlarida keng tarqalgan. Hatto eng yirik shaharlarda yashovchi qariyalar ham chanqovuzni yaxshi bilishlari va yoshlik davrlarida chalib ko'rganliklarini aytishadi. Chanqovuz cholg'usi ijrochilari azaldan ayollar va qizlar bo'lishgan. Chanqovuzda yakka holda va birgalikda ijro etib kelingan. Ba'zan 10-15 tagacha ijrochilar qo'shilib chalish holatlari ham uchraydi. Chanqovuzning eng keng tarqalgan davri sifatida "II-jahon urushi" davrini keltirish mumkin. Ushbu davrda ayollar birgalikda mehnat qilgan jamoalarda keng ommalashgan bo'lib, har bir ayol o'zi bilan doimo chanqovuzini olib yurgan va dam olish vaqtida ham ayollar birgalikda chanqovuz chalib, dam olishganlar.

Hozirda chanqovuz cholg'usi ko'proq Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida saqlanib qolgan. Sho'rchi tumanida faoliyat ko'rsatayotgan "Bulbuli go'yo" folklor-etnografik xalq ansamblining oldingi nomi ham "Chanqovuz" bo'lgan. Sho'rchi tumanidan Boboxonova Jarqin momo, Nurmatova Sofiya momo, Muzrabort tumanidan Nazira momo Ramazonova kabi chanqovuz ijrochilarining ijro etgan nag'malari o'ziga xos sadolari bilan ajralib turadi. Ular inson ichki hissiyotini ifodalovchi "Yorga salom", "Sevgi", "Yor kelur" yoki tabiat hodisalalarini ifodalovchi "Shaboda", "Toshqin soy" kabi nomlar bilan ataladi.

Chanqovuz ijrochiligini qayta jonlantirgan marhum Juma bobo Abrayqulov chanqovuzni quyidagicha ta'riflagan:

Yor qalbiga yo'l solgan, do'st ko'ngliga nur sochgan.

Bog'da turfa gul ochgan, sayra mening chaqovuzim,  
kuyla mening chanqovuzim.

Juma chanqovuzchi bolaligidan san'atga qiziqqan. Bobosi ham, otasi ham do'mbirani yaxshi chertgan. Ammalari esa chanqovuzni sehrli chalgan. Ulardan olgan ilhomi tufayli Juma Abrayqulov ham yoshligidan chanqovuzni mukammal o'rgangan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T., “Musiqqa”, 2010.
2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T.: “Mumtoz so'z”, 2010.
3. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq oqzaki poetik ijodi. T., 2005.
4. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009 yil.
9. Doniyorbek, N. (2023). BOLALAR UCHUN ZAMONAVIY SUV MUOLAJALARI MAJMUASINI YARATISH. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 523-527.
10. Qo'ziyevich, E. I., & Elmuradovna, J. E. (2023). Qadimgi qarshi shahri arxiologik yodgorliklari arxitekturasi ilmiy tahlili. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(2), 58-61.
11. Qo'ziyevich, E. I., & Elmuradovna, J. E. (2023). The scheme of territorial placement of agglomeration commercial and household complexes in Uzbekistan. Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2(2), 62-67.
12. Maxmatqulov, I. T. (2022). Scientific analysis of the Erkurgan historical and archeological complex in Karshi district of Kashkadarya region. Journal of Architectural Design, 4, 27-31.
13. Elmuradovna, J. E., & Qo'ziyevich, E. I. (2023). BUXORO ARKINING ARXITEKTURAVIY SHAKLLANISHI. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 2(2), 75-78.